O‘ZBEK TILIDA RAVISHLARNING GRADUONIMIK MAQOMINI ANIQLASHNING SKALYAR-SEMANTIK MEZONLARI

Atadjanova Marxabo Ilxamovna

marxabo@urdu.uz

ORCID: https://orcid.org/0009-0003-5513-4655

Mustaqil izlanuvchi,

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti

Annotatsiya. Tezisda o‘zbek tilidagi o‘rin, holat va payt ravishlarining graduonimik imkoniyatlari skalyar-semantik jihatdan tahlil qilinadi. Bir semantik guruhga kirgan ravishlarning barchasi ham graduonimik qator hosil qilmasligi masofa, sur’at va chastota maydonlari misolida ko‘rsatiladi. Tahlil semik va kontekstual usullarga tayanadi. Qatorni aniqlash uchun ishchi model, graduonimik potensial, zona, leksik bo‘shliq va zichlik tushunchalari hamda sakkiz bosqichli tekshiruv algoritmi taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: graduonimiya, ravish, skalyar parametr, integral sema, differensial sema, graduonimik potensial, graduonimik zona, leksik bo‘shliq, o‘zbek tili.

Abstract. The thesis analyzes the graduonymic potential of Uzbek adverbs of place, manner and time from a scalar-semantic perspective. Using the microfields of distance, tempo and frequency, it shows that adverbs of one semantic group do not always form a graduonymic series. A working model, the notions of graduonymic potential, zone, lexical gap and density, and an

eight-step diagnostic algorithm are proposed. The analysis relies on componential and contextual methods.

Keywords: graduonymy, adverb, scalar parameter, integral seme, differential seme, graduonymic potential, graduonymic zone, lexical gap, Uzbek language.

KIRISH

O‘rin, holat va payt ravishlari makon, harakat tarzi va zamon munosabatlarini bildiradi, lekin bu guruhlardagi leksemalarning hammasi graduonimik munosabatga kirmaydi. Qator hosil bo‘lishi uchun umumiy integral sema yetarli emas: shu semaning miqdori yoki darajasi izchil o‘zgarib borishi ham kerak. Mavjud tasniflar esa bir guruhdagi ravishlarni ko‘pincha bitta shkalaga joylashtiradi, shunda sun’iy qatorlar paydo bo‘ladi. Maqsadimiz o‘zbek tilidagi ravishlarning graduonimik maqomini aniqlash mezonlarini belgilashdir. Yangiligi shundaki, ravishlar materialida graduonimik potensial, zona, leksik bo‘shliq va zichlik tushunchalarini hamda sakkiz bosqichli algoritmni taklif qilamiz. Bu o‘zbek va ingliz ravishlarini solishtirishda ham kerak bo‘ladi: ingliz tilidagi bir so‘zli ravish o‘zbekchada ko‘pincha analitik birikma bilan beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O‘zbek tilshunosligida darajalanish nazariyasini O.Bozorov yaratgan. U graduonimiyani sinonimiyadan sememalardagi semalarning darajali farqlanishi bilan ajratadi [1, 152-b.]. Sh.Orifjonova lug‘aviy graduonimiyani leksemalararo paradigmatik munosabatning alohida turi deb biladi va qator a’zolari bir umumiy semantik belgi atrofida birlashishini ta’kidlaydi [2, 7–10-b.]. J.Sh.Djumabayeva o‘zbek va ingliz tillarini solishtirib, leksik graduonimiyani grammatik va stilistik gradatsiyadan ajratish zarurligini ko‘rsatgan [3, 15–18-b.]. Bizningcha, ravishlar uchun yana bir shart bor: qator

a’zolari bir xil skalyar parametr bo‘yicha farqlanishi kerak. Sekin, asta, tez, ildam, jadal birliklarining hammasi harakat tarziga tegishli, lekin ular faqat tezlik miqdori bilan ajralmaydi.

Tahlilda semik va kontekstual tahlil hamda tavsif usullaridan foydalandik. Avval birlikning ravish ekanini tekshirdik: ichkarida, ehtiyotkorlik bilan, baland ovozda gapda hol bo‘lib kela oladi, ammo morfologik va leksik maqomi bir xil emas. Ishchi model quyidagicha:

$$G = I + S + O + L,$$

bunda G – graduonimik munosabat, I – umumiy integral sema, S – skalyar differensial sema, O – qator a’zolarining semantik tartibi, L – ularning leksik mustaqilligi. Bu formula matematik qonuniyat emas, qatorni aniqlashda yordam beradigan diagnostik modeldir.

NATIJALAR

Eng avval lug‘aviy graduonimiyani grammatik darajalanishdan ajratdik. Yaqin → yaqinroq → eng yaqin shakllarida shkalaning nuqtalari mustaqil leksemalar bilan emas, bitta asosga daraja ko‘rsatkichi qo‘shib ifodalanadi, shuning uchun bunday qator lug‘aviy graduonimik qator hisoblanmaydi.

O‘rin ravishlarida ichkarida ↔ tashqarida, yuqorida ↔ pastda juftlari oppozitsiya hosil qiladi, lekin belgi bosqichma-bosqich o‘zgarmaydi. Bu yerda, shu yerda, u yerda qatorida asosiy parametr deiksisdir. Graduonimik imkoniyat masofada ko‘rinadi: yaqinda va uzoqda orasidagi oraliq nuqtalar ancha yaqin, sal uzoqroq kabi birikmalar bilan beriladi, mustaqil ravishlar bilan emas. Shkala bor, uni to‘ldiradigan leksemalar yo‘q. Buni graduonimik leksik bo‘shliq deb ataymiz. Berida va narida birliklarida masofa bilan birga yo‘nalish semasi ham bor, shuning uchun ularning o‘rnini mo‘ljal nuqtasisiz belgilab bo‘lmaydi.

Holat ravishlarida sekin, asta, tez, ildam, jadal bitta parametrga tayanmaydi: bu yerda sur'at, ehtiyotkorlik, chaqqonlik va intensivlik aralashgan. Shu sababli qat'iy chiziqli tartib o'rniga graduonimik zona tushunchasini qo'lladik: past sur'at zonasi (sekin / asta), yuqori sur'at zonasi (tez / ildam) va sur'at bilan intensivlik kesishgan zona (jadal). Takror shakllar alohida masala. U tez yurdi gapida tez sur'atni bildiradi, U tez-tez keladi gapida esa takrorlanishni. Parametr sur'atdan takroriylikka o'tadi, buni skalyar parametr almashishi deymiz. Asta-sekin ham oddiy yig'indi emas: asta bilan sekin birikib, past sur'atga bosqichma-bosqich o'zgarish semasini qo'shadi (Vaziyat asta-sekin yaxshilandi). Demak, takrorlash ba'zan mavjud parametrni kuchaytirmaydi, yangi semantik tuzilma hosil qiladi.

Payt ravishlarida kecha – bugun – ertaga aniq tartib hosil qiladi, lekin bu xronologiya, graduonimiya emas. Hozir, endi, keyin, so'ng birliklari vaqtga oidlik semasi bilan birlashadi, ammo farqi bitta parametrga tayanmaydi: hozir nutq momentini, endi yangi bosqich boshlanishini, keyin hodisalar ketma-ketligini, so'ng boshqa hodisadan keyingi vaqtni bildiradi. Chastota maydonida graduonimik munosabat yaqqol ko'rinadi: [doimo / hamisha] → [tez-tez / ko'pincha] → [ba'zan / gohida] → [onda-sonda / kamdan-kam] → hech qachon. Kamdan-kam hodisa juda past chastotada bo'lsa ham yuz berishini nazarda tutadi, hech qachon esa chastotani nolga tenglashtiradi. Demak, qator tuzishda oraliq bosqichlarni ham, chegara qiymatlarni ham aniqlash kerak. Darrov, darhol, bir zumda, lahzada birliklarini esa avval alohida temporal tezkorlik mikromaydonida tekshirish kerak, chunki ularda sur'at, interval va boshlanish tezkorligi aralashgan.

1-jadval. Ravishlar semantik maydonlarining graduonimik maqomi

Semantik maydon	**Skalyar mikroparametr**	**Misollar**	**Graduonimik maqomi**
O‘rin: masofa	masofa	yaqinda → [?] → [?] → uzoqda	graduonimik leksik bo‘shliq
O‘rin: deiksis	deiktik yaqinlik	bu yerda, shu yerda, u yerda	sof graduonimik qator emas
Holat: sur’at	harakat sur’ati	sekin / asta; tez / ildam; jadal	graduonimik zona
Payt: chastota	takrorlanish chastotasi	doimo / hamisha … hech qachon	zonal graduonimik struktura
Payt: xronologiya	nutq momentiga nisbatan joylashuv	kecha, bugun, ertaga	graduonimik emas

Kontekstning o‘rni ham alohida ko‘rindi. U doimo kechikadi gapida doimo hamma holatni emas, so‘zlovchining subyektiv bahosini bildirishi mumkin, Men buni hech qachon unutmayman gapida esa hech qachon ekspressiv ma’no oladi. Demak, kontekst graduonimik munosabatni yaratmaydi, mavjud imkoniyatni faollashtiradi yoki kuchaytiradi.

Ravishlarni uch guruhga bo‘ldik: noskalyar ravishlar; skalyar, lekin nograduonimik ravishlar; qator yoki zona hosil qiluvchi ravishlar. Skalyar sema bo‘lishi qator borligini bildirmaydi: buning uchun leksik mustaqillik, bir necha bosqich va tartib ham kerak. Chastota maydonining zichligi masofa maydonidan yuqori chiqdi. Zichlikni leksemalar soni emas, mustaqil skalyar pozitsiyalar soni belgilaydi: tez, ildam, jadal, shiddatli tarzda birliklari ko‘p,

lekin ular orasida intensivlik, uslubiylik va konnotativlik farqi bor, ya’ni har biri sur’at shkalasining alohida bosqichi emas.

MUHOKAMA

Bu natijalar Bozorov, Orifjonova va Djumabayeva qarashlariga tayanadi va ularni ravishlar materialida aniqlashtiradi. Qator a’zolarining barqarorligi bir xil emas: doimo va hech qachon qutblari kontekstga kam bog‘liq, ba’zan, gohida, onda-sonda esa nutq vaziyatiga ko‘p qaraydi. Shuning uchun ravish graduonimiyasini barqaror yadro va kontekstga bog‘liq periferiya sifatida tasvirlash to‘g‘ri bo‘ladi. Yadroga shkaladagi o‘rni kontekstdan kam o‘zgaradigan birliklar kiradi, periferiyaga esa o‘rni nutq vaziyati, kollokatsiya va pragmatik omillarga bog‘liq birliklar tushadi. Til o‘rgatishga oid ayrim manbalarda always yoki doimo uchun yuqori, sometimes yoki ba’zan uchun o‘rta foiz beriladi. Lingvistik tahlilda bunday raqamlar qat’iy qiymat bo‘la olmaydi: ba’zanning chastotasi vaziyatga qarab o‘zgaradi, tez-tez esa bir ish uchun haftasiga bir necha marta, boshqasi uchun yiliga bir necha marta bo‘lishi mumkin. Tartib bor, matematik interval yo‘q. Tadqiqotning cheklovi shuki, tez, darrov, darhol, bir zumda guruhi hali alohida tekshirilmagan, ingliz tili materiali bilan solishtirish esa keyingi ish. U yerda bir so‘zli ravishning o‘zbekchada analitik birikma bilan berilishi graduonimik zichlikni solishtirishga ham ta’sir qilishi mumkin. Algoritm sakkiz qadamdan iborat: ravish ekanini tekshirish, makromaydonni aniqlash, skalyar mikroparametrni topish, leksik mustaqillikni tekshirish, parametr birligini tekshirish, tartibni aniqlash, kontekstda sinash, maqomni belgilash.

XULOSA

Ravishning o‘rin, holat yoki payt guruhiga kirishi uning graduonimik qator hosil qilishini kafolatlamaydi. Maqomni belgilashda parametr birligi, leksik mustaqillik va tartib hisobga olinishi kerak. Taklif etilgan tushunchalar

sun’iy qatorlar tuzishning oldini oladi va o‘zbek hamda ingliz ravishlarini solishtirishda asos bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bozorov O. O‘zbek tilida darajalanish: Filol. fan. nomz. ... dis. – Toshkent, 1997.

2. Orifjonova Sh.G. O‘zbek tilida lug‘aviy graduonimiya: Filol. fan. nomz. ... dis. avtoref. – Toshkent, 1996.

3. Djumabayeva J.Sh. Turli tizimli tillarda leksik va stilistik graduonimiya. – Toshkent, 2014.

REFERENCES

1. Bozorov, O. (1997). O‘zbek tilida darajalanish [Gradation in the Uzbek language]. Candidate’s dissertation. Tashkent. (In Uzbek).

2. Orifjonova, Sh.G. (1996). O‘zbek tilida lug‘aviy graduonimiya [Lexical graduonymy in the Uzbek language]. Abstract of the candidate’s dissertation. Tashkent. (In Uzbek).

3. Djumabayeva, J.Sh. (2014). Turli tizimli tillarda leksik va stilistik graduonimiya [Lexical and stylistic graduonymy in languages of different systems]. Tashkent. (In Uzbek).